



**SO`Z TARKIBINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI O`RGANISHDA  
QO`LLASH**

**Raxmonova Maxfirat Abdulboqiy qizi**  
*Farg`ona davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Maqola doirasida pedagogik tehnologiyalar, yangi pedagogik tehnologiyalar, zamonaviy ta'lif tehnologiyasi, pedagogik tehnologiyalarni o'rganishda so'z tarkibini qo'llash haqida fikrlar yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** pedagogik tehnologiya, zamonaviy ta'lif, so'z tarkibi, pedagogik o'git, o'yinli tehnologiya.

O'tgan yillarimizga nazar tashlab, ularni sarhisob qilsak, mustaqilligimiz sharofatini yanada chuqurroq anglaymiz. Biz ta'linda butunlay yangilanish, yangi jarayonga tom ma'noda o'tish va unga moslashish davrini boshimizdan kechirmoqdamiz. «Ta'lif to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bizga eski usullardan voz kechib ta'lifning har bir qirrasigacha qayta qurish imkonini bergen bo'lsa, «2004-2009 yillarda Maktab ta'limi rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi» esa qo'lga kiritilgan imkoniyatlarni: takomillashgan davlat ta'lif standartlari, o'quv dasturlari, davlat talablari, yangi o'quv darsliklarini har tomonlama zamon talablariga mos jihozlangan maktablarda, zamonaviy o'quv xonalarida amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini keng ochib berdi. Yangilangan ta'linda o'quvchining yuragidagi cho'g'ni alanga oldirish, uni har tomonlama rivojlantirib, bilimdan-bilimga yetaklab olib chiqish uchun zamonaviy darslar zarurdir. Hozirgi paytda pedagogika fanida pedagogik texnologiyalar, ta'lif texnologiyasi, o'qitish texnologiyasi iboralari tez-tez tilga olinmoqda. Bugungi kungacha pedagogik adabiyotlarda, ta'lif muammolariga oid ma'ruzalar, rasmiy hujjatlarda «yangi pedagogik texnologiya», «ilg'or pedagogik texnologiya», «zamonaviy ta'lif texnologiyasi» ga oid tushunchalari hali ham bir qolipga tushirilmagan, ensiklopediyalarda izohlanganicha yo'q, uning mazmunini yagona talqini ishlab chiqilmagan va shuning uchun iboraning bir-biridan farqlanuvchi ko'pgina ta'riflari mavjud. Pedagogik texnologiya - shunday bilimlar sohasiki, ular vositasida uchinchi ming yillikda davlatning ta'lif sohasidagi siyosatida tub burilish yuz beradi, o'qituvchi faoliyati yangilanadi, o'quvchi va talaba yoshlarda hurfikrlilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga mehr-muhabbat, isonparvarlik tuyg'ulari tizimi shakllantiriladi. Tarixan texnologiya tushunchasi texnik taraqqiyot bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan va bu tushuncha san'at, hunar va fan haqidagi ta'lifotga muvofiq keladi. Texnologiya deganda, odatda ashyolami qayta ishlash metodlari va ishlab chiqarish jarayoni hamda ulaming ilmiy tavsiflarining majmui

# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



tushuniladi. Pedagogik texnologiya pedagogning talabalarga ta'sir qilishni tashkil etish bo'yicha kasbiy ahamiyatga molik malakalar tizimini aniqlab beradi, pedagogik faoliyatning texnologikligini anglash usullarini taklif etadi. Pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari V.P. Bespalko pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq qilinadigan muayyan pedagogik tizimni loyihasi sifatida belgilaydi. U pedagogik tizim texnologiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'ladi, deb hisoblaydi. Bunda asosiy diqqat o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratiladi, didaktik vazifa va o'qitish texnologiyalari tushunchasidan foydalaniлади. Shu tariqa V.P. Bespalko o'quv jarayonini loyihalash g'oyasini ilgari suradi. Afsuski, hozirigi qadar pedagogik texnologiya va loyiha tushunchalari haqida aniqlik yo'q. Pedagogik texnologiyalarning ilmiy asoslari «Pedagogik texnologiya — psixologik va pedagogik o'gitlar yig'indisi bo'lib, shakllar, metodlar, usullar, o'qitish yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus to'plamidir. Ayni zamonda u pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik omilini ham bildiradi» (B.Lixachev). «Pedagogik texnologiya — o 'quv jarayonini amalga oshirishning mazmuniy texnikasi» (V.P. Bespalko). «Pedagogik texnologiya — rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi» (I.P. Volkov).

Pedagogik tehnologiyalarni o'rganishda so`z tarkibi muhim hisoblanadi. So`z tarkibini morfemika bo`limi o'rganadi. Morfemika (yoki Morfologiya) so`z tarkibini o'rganuvchi bo'limdir. So'zning tarkibiy qismlari asos va qo'shimcha hisoblanadi: xabar/dor, ilm/li, ulug'/la/moq... Asos – so'zning asosiy ma'nosini ifodalab, mustaqil qo'llana oladigan qismi. U boshqa ma'noli qismlarga ajralmaydi. M.: bil/im/don so'zida bil-, bo'yo/q so'zida bo'ya- asosdir. Qo'shimcha –mustaqil qo'llana olmaydigan, asosga qo'shilib, unga yangi yoki qo'shimcha ma'no yuklaydigan, shuningdek, so'zlarni bog'lashga xizmat qiladigan qismdir. M.: bil/im/don/lik so'zida -im,-don, -lik qo'shimchalardir.

«Texnologiya — ishlov berish, holatni o'zgartirish san'ati, mahorati, malakasi va metodlar yig'indisi» (V.M. Shepel). «Pedagogik texnologiya — talaba va o'qituvchining ularga zarur sharoit yaratish orqali o'quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha ular pedagogik faoliyatining har tomonlama o 'ylangan modelidir.»(V. M. Manaxov). «Pedagogik texnologiya — bu ta'lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning bиргаликдаги harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir» (YuNESKO). «Pedagogik texnologiya — pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniладиган shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo'lishning tizimli yig'indisi va tartibini bildiradi»(M.V.Klarin). «Pedagogik texnologiya — o'zida turli mualliflar (manbalar)ning barcha ta'riflari mazmunini qamrab olgan mazmuniy umumlashma hisoblanadi». (G.K. Selevko). Bu ta'riflar tahlilidan pedagogik texnologiya natijani qo'lga kiritish uchun ta'lim doirasida zarur bo'lgan vositalar



# "PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



tizimini rejalashtirish va tatbiq etish degan xulosaga kelish mumkin. O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. O'yinli texnologiyalar O'yin ijtimoiy tajribalami o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. O'yinli faoliyat muayyan funksiyalarni bajarishga bag'ishlangan bo'ladi. Ular quyidagilar:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o'z imkoniyatlarini amalg oshirish;
- davolovchilik;
- tashxis;
- millatla raro muloqot;
- ijtimoiylashuv.

## ADABIYOTLAR:

1. S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT
2. Azizzxo'jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: 2006
3. Avliyoqulov N.X. Musayeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent., 2008